

GULLARNING JOYLASHISH RASMIGA BOG‘LIQ HOLDA QORA RANGLI QORAKO‘L QO‘ZILARINING O‘SISH VA RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARI

G.S.Norboyeva-tayanch doktorant

A.Gaziyev-q.x.f.d., professor

Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti

Annotsiya. Maqolada qora rangli qorako‘l qo‘zilarining tug‘ilgandagi tirik vazni va tana tuzilish indeksleri qorako‘l gullarining joylashish rasmi bilan bog‘liq ravishda o‘rganilgan va mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Qorako‘l qo‘ylari, qo‘zilari, gullarning joylashish rasmi, jun-tola uzunligi, o‘lish, rivojlanish, tana indeksleri.

Abstract. The article studies the live weight and body size of black Karakul lambs at birth, their indices in relation to the location of Karakul flowers, and analyzes some literature on the topic.

Key words. Karakul sheep, lambs, picture of location of flowers, wool fiber length, growth, development, body indexes.

Mavzuning dolzarbligi. Chorvachilik sohasida olib boriladigan har bir ilmiy-tadqiqot ishida hayvonlarning turi, zoti, zotdorligi, jinsi, yoshi va mahsuldorlik yo‘nalishidan qat’iy nazar ularning o‘lish va rivojlanish ko‘rsatkichlarini o‘rganish muhim hisoblanadi va bu ko‘rsatkich hayvonlarni mahsuldorligi bilan bevosita bog‘liqlikda bo‘ladi.

Takidlash lozimki, o‘lish va rivojlanish har bir individning ontogenez davrida aniqlanadi. O‘lish organizmdagi hujayralarning bo‘linishi natijasida sodir bo‘lib, tana massasining oshishini ta‘minlasa, rivojlanish esa organizmdagi hujayralarning differentsiatsiyasi natijasida ro‘y berib, tana shaklining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Ma‘lumki, tirik organizm shaxsiy taraqqiyotidagi sifat o‘zgarishlarning farqlanishi rivojlanish bilan bog‘liqlikda bo‘ladi, u hujayra, to‘qima va a‘zolarining ixtisoslashishi va murakkablashishi, eski xususiyatlar yo‘qolib, yangi xususiyatlar paydo bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda morfologik, biokimyoviy va fiziologik o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Organizmning rivojlanishi modda almashinuvi, ya‘ni assimilyatsiya va dissimilyatsiya jarayonlarining nisbiy o‘zgarib borishi natijasida yuz beradi. Organizm taraqqiyotida har bir hujayra to‘xtovsiz o‘zgarib, unda doimo moddalarning yemirilishi va yangidan tiklanishi ro‘y beradi. Boshqacha qilib aytganda yashash jarayonida hujayra va to‘qima moddalari yemirilib, issiqlik energiyasi ajralib, hayot uchun muhim bo‘lgan boshqa moddalar, ya‘ni fermentlar, gormonlar va oqsillarga aylanadi. Bu holatda fiziologik regeneratsiya yuz beradi. Bu esa rivojlanishning asosiy shaklidir. Ma‘lumki, rivojlanishda hayvon tanasi takomillashib boradi. Ya‘ni tashqi tuzilishi o‘zgaradi va bu o‘zgarish ularning mahsuldorligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Mavzuning o'rganilganligi. Mualliflarning fikrcha, qo'zilar tug'ilgan davrda turlicha tirik vaznga ega bo'ladi. Qo'pol konsitutsiya tipidagi sur qo'zilar tirik vazni boshqalarga nisbatan yuqori ekanligi ($4,87 \pm 0,07$ kg), eng kam tirik vaznga esa nozik tipdagi qo'zilarga ($3,99 \pm 0,07$ kg) to'g'ri kelganligi aniqlangan. Bu ma'lumotlar turli konsitutsiya tipidagi qo'zilar xomila rivojlanish davrining turlicha kechishini anglatadi [1].

A.A.Urimbetovning (2023) fikricha eksterer o'lchamlari qishloq xo'jalik hayvonlarining tirik vazni bilan bog'liq bo'lgan muhim biologik ko'rsatkichlar qatoriga kiradi. Eksterer ko'rsatkichlari rivojlanish va o'sishga, qo'zilarining embrional rivojlanish davrida va tug'ilgandan keyin onalari va keyinchalik o'zlarini oziqlantirish darajasi, tirik vazni, konsitutsiya tipi, etologik xususiyatlari va boshqa bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi [2].

Mamatov B.S. Akbarova M.V. (2022-y) tadqiqotlarida qorako'l qo'zilarini tanasining kattaligi va gulining uzunligi, kengligi o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjud bo'lib, ularni tanlashda e'tiborga olish kerakligi takidlangan [4].

Tadqiqot maqsadi. Qora rangli qorako'l qo'zilarining tug'ilgandagi tirik vazni, ekstere ko'rsatkichlarining gullarning rasmi bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqot manbai va usullari. Tadqiqotlar Qashqadaryo viloyatining "Muborak" naslchilik MChJda urchitiluvchi qora rangli qorako'l qo'ylarida olib borildi. Parallel-konsentrik va parallel-to'g'ri rasmi qo'chqorlar bilan parallel-konsentrik, parallel-to'g'ri va aralash rasmi urg'ochi qo'ylar juftlanib, olingan avlodlarda ushbu ko'rsatkichlarning namoyon bo'lish darajalari o'rganildi.

Qo'zilarini seleksion baholash "Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarini baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma" asosida amalga oshirildi [3].

Olingan ma'lumotlarga variatsion statistika usullarida ishlov berildi [5].

Tadqiqot natijalari. O'zbekistonda qorako'l qo'zisining vazni tug'ilganda taxminan 4,5-5 kg ni tashkil qilib, bu ko'rsatkich onasining vaznining 12% ini tashkil qiladi. Bu faqat semiz quyruqli qo'ylar uchun ma'lum bo'lgan juda muhim nisbiy tug'ilish vaznidir.

Tadqiqotlar davomida ota-onalar gul rasmiga bog'liq holda olingan avlodlarning tirik vazn ko'rsatkichlari o'rganilgan (1-jadval).

1-jadval

Turli juftlashdan olingan qora rangli qorako'l qo'zilarining tug'ilgandagi tirik vazni

Juftlash		n	Shundan, % ($X \pm S_x$)	
♂	♀		$X \pm S_x$	Cv %
PK	PK	110	$4,67 \pm 0,03$	6,2
	PT	60	$4,69 \pm 0,02$	3,52
	Aralash	52	$4,81 \pm 0,04$	5,4
PT	PK	80	$4,71 \pm 0,03$	4,9
	PT	68	$4,63 \pm 0,04$	6,5
	Aralash	46	$4,77 \pm 0,02$	3,1

Jadvaldagi raqamlardan bilish mumkinki, guruhlar orasida katta tafovut yo‘q, eng kam ko‘rsatkich sifatida PTxPT juftlashdan olingan avlodlarni misol keltirish mumkin, bunga aksincha bo‘lib esa, PKxAralash juftlashdan olingan avlodlarni misol keltirish lozim bo‘ladi ($P<0,001$).

Qo‘zilarining eksterer o‘lchamlari. Hayvonlarni oziqlanishdan oldin va oziqlanishdan 3 soat keyin o‘lchash lozim. Ular tekis maydonda tinch holatda turgan bo‘lishi kerak. Qo‘yilgan maqsadga ko‘ra o‘lchovlar soni har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, Qoramol va otlarda 10 ta, qo‘ylarda 4 ta o‘lcham olinadi. Ushbu yo‘nalishda olingan ma‘lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Qora rangli qorako‘l qo‘zilarining tug‘ilgandagi tana o‘lchamlari

Juftlash		n	Tana o‘lchamlari, $\%(X\pm S_x)$					
♂	♀		Yag‘rin balandligi	Gavda qiya uzunligi	Ko‘krak chuqurligi	Ko‘krak aylanasi	Ko‘krak kengligi	Pocha aylanasi
PK	PK	110	39,75 $\pm$ 0,12	31,1 $\pm$ 0,055	14,6 $\pm$ 0,02	39,0 $\pm$ 0,14	9,22 $\pm$ 0,04	5,7 $\pm$ 0,04
	PT	60	39,5 $\pm$ 0,10	30,38 $\pm$ 0,05	14,59 $\pm$ 0,025	37,3 $\pm$ 0,16	8,9 $\pm$ 0,04	5,75 $\pm$ 0,04
	Aralash	52	39,9 $\pm$ 0,13	30,85 $\pm$ 0,048	14,53 $\pm$ 0,03	39,0 $\pm$ 0,2	9,04 $\pm$ 0,042	5,92 $\pm$ 0,035
PT	PK	80	39,54 $\pm$ 0,13	30,23 $\pm$ 0,047	14,71 $\pm$ 0,02	37,4 $\pm$ 0,11	9,02 $\pm$ 0,03	5,95 $\pm$ 0,03
	PT	68	39,3 $\pm$ 0,13	30,13 $\pm$ 0,042	14,62 $\pm$ 0,024	38,1 $\pm$ 0,09	8,9 $\pm$ 0,003	5,58 $\pm$ 0,04
	Aralash	46	39,9 $\pm$ 0,14	30,7 $\pm$ 0,05	14,73 $\pm$ 0,03	39,6 $\pm$ 0,14	9,24 $\pm$ 0,04	5,89 $\pm$ 0,04

2-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rish mumkinki, PK va PT rasmi qo‘chqorlarni aralash rasmi soviqlar bilan juftlashda barcha tana o‘lchamlari bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichli avlodlar olish mumkin. Shuningdek geterogen juftlashdan olingan avlodlar ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori ekanligini ko‘rish mumkin.

Qo‘zilarining tana tuzilish indeksleri. O‘zaro anotomik bog‘liq tana qismlari o‘lchovlarning bir-biriga foizlarda ifodalangan nisbati *indeks* deb ataladi. Indeksni hisoblaganda odatda hayvon tanasining mutanosibligini, tana tuzilishi xususiyatlari va konstitutsiyasini tavsiflovchi anotomik jihatdan o‘zaro bog‘liq tana o‘lchamlari olinadi. Indekslar oddiy (bitta tana o‘lchamining boshqa bittasiga) va murakkab (bitta yoki bir guruh o‘lchamlarning boshqa bir o‘lchamlarga nisbati) bo‘ladi. Ushbu xususiyatlarni o‘rganish natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Qora rangli qorako‘l qo‘zilarining tug‘ilgandagi tana tuzilish indeksleri

Juftlash		n	Tana tuzilish indeksleri, %				
♂	♀		Uzunoyoqlik	Cho‘zinchoqlik	Ko‘krakdorlik	To‘lishganlik	Suyakdorlik
PK	PK	110	63,2	77,74	64,9	127,9	14,4
	PT	60	63,1	76,9	61,2	129,7	14,3
	Aralash	52	63,6	77,32	62,9	130,5	14,34
PT	PK	80	63,1	77,0	61,9	130,0	14,44
	PT	68	63,1	76,93	58,8	130,3	14,35
	Aralash	46	63,1	76,94	61,94	129,3	14,34

Deyarli barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha PKxPK juftlashdan olingan avlodlar yuqori ekanligini 3-jadval ma‘lumotlaridan, PTxPT juftlashdan olingan avlodlarning tana indeksi foiz ko‘rsatkichlari nisbatan past ekanligini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bozorov S.R., Sattorov S.B. Har xil konsitutsiya tipidagi sovliqlardan olingan qorako'l qo'zilari va terilarining sifat ko'rsatkichlari. Chorvachilik va naslchilik jurnali №6, 2022 y, 24-25 betlar.
2. Urimbetov A.A. Qoraqolpoq sur qorako'l qo'ylarining eksterer ko'rsatkichlari va o'zgaruvchanlik xususiyatlari. Chorvachilik va naslchilik jurnali №4, 2023 y, 26-27 betlar.
3. Yusupov S.Yu. va boshqalar. Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma. Toshkent, 2015. 31 bet.
4. Mamatov B.S, Akbarova M.V //The Relationship of Body Length and Width of Karakul Lambs// Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences ISSN NO: 2771-8840. 20-10-2022. Page 41-42. <https://zienjournals.com>
5. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва, 1969. С.125-130

UO'K: 636.32/082.11.

RANGBARANGLIKLAR BO'YICHA JUFTLASHDAN OLINGAN AVLODLARDA GUL O'LCHAMI KO'RSATKICHLARI

B.S.Mamatov-q.x.f.f.d. (PhD), K.I.X., bo'lim mudiri
Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti
bshms@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada sur rangli qorako'l qo'ylarini rangbarangliklar bo'yicha turli xil variantlarda juftlashdan olingan olingan avlodlarda gul uzunligi va gul kengligining namoyon bo'lish darajalarini o'rganish bo'yicha olingan ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: qorako'l qo'ylari, avlod, juftlash, gomogen, geterogen, rangbaranglik, gul uzunligi, gul kengligi.

Summary. The article presents data on the study of flower length and flower width manifestation levels in the offspring obtained from the mating of black-colored Karakul sheep in different varieties.

Key words: karakul sheep, offspring, selection, homogeneous, heterogeneous, color, curl length, curl width.

Kirish. Qorako'l qo'ylarining asosiy mahsuloti ulardan olinadigan qorako'l terilari bo'lib, ular turli rang va rangbaranglik, gul tiplari bilan ajralib turadi. Rang va rangbarangliklar kesimida asosiy gul ko'rsatkichlari bo'lgan ularning eni va uzunligi o'zgarib boradi. Sur rangli terilarda gullarning eni qora terilarga qaraganda biroz yirik bo'ladi, ya'ni rang qanchalik ochiq tusga kirs gullarning eni kengayib boradi.

Bir qator olimlar tomonidan [1] seleksiya samaradorligini oshirish yo'nalishda ushbu jarayonini alohida olingan muhim belgilarni hisobga olib borishning afzallik tomonlari aniqlangan. Ushbu holatda gullarning shaklini inobatga olib seleksiya ishlarini olib borish avlodlarda ekologik hududlar miqyosida ushbu ko'rsatkich

M U N D A R I J A

1	Shaptakov E.S., Xatamov A.X. Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutida erishilgan ilmiy natijalar	3
2	Шаптаков Э.С., Хатамов А.Х., Ахмадалиева Л.Х., Кличев З.С. Изобретательская деятельность в НИИ каракулеводства и экологии пустынь, посвященная 95 летнему юбилею института	6
I. CHO‘L CHORVACHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING SELEKSION VA GENETIK MUAMMOLARI VA YECHIMLARI		
3	Shaptakov E.S., Yarmanov M.S. Sur rangli avlodlarning pigmentlanish darajasini gul tiplariga bog‘liqligi	10
4	Xatamov A.X., Gaziyeu A. Ekstremal cho‘l sharoitlarida urchitiluvchi qorako‘l qo‘ylarini urchitishda gul rasmining aniqligi bo‘yicha seleksiyalash samaradorligi	12
5	Газиев А., Хатамов А.Х., Маматов Б.С., Фазилов У.Т. Турли экологик шароитда қоракўл қўйлари селекция белгиларининг ўзгарувчанлиги	15
6	Арипов У., Имомов Х., Турсунов Ж. Жизнеспособность каракульских овец, мониторинг биопродуктивных признаков и улучшение качества каракуля	21
7	Уримбетов А.А., Газиев А. Особенности проявления селекционных признаков у ягнят сур каракалпакского породного типа	27
8	Уримбетов А.А., Газиев А. Совершенствование методов селекции каракульских овец каракалпакского сура разных этологических типов	30
9	Фазилов У.Т., Газиев А., Туранов М. Музей коллекции оригинальных каракульских шкурок уникального научного объекта	34
10	Imomov X.N., Aripov U.X. Turli genotipli avlodlar gullarining rasmi va mustahkamligi	39
11	Seytmusayeva Z.A., Gaziyeu A. Qoraqalpoq sur qo‘ylarini differensiyalangan juftlashdan olingan avlodlarning jun-tola sifati	43
12	Shaptakova L.E., Gaziyeu A. Turli gul tipi va sinfdagi qorako‘l qo‘zilarining jun-tola qoplami pigmentatsiyasi va gul mustahkamligi	46
13	Norboyeva G.S., Gaziyeu A. Gullarning joylashish rasmiga bog‘liq holda qora qorako‘l qo‘zilarining o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari	49
14	Mamatov B.S. Rangbarangliklar bo‘yicha juftlashdan olingan avlodlarda gul o‘lchami ko‘rsatkichlari	52
15	Turanov M.H. Buxoro suriga mansub olmos va kumushsimon rangbaranglikdagi qo‘ylardan olingan avlodlarda belgilarning o‘zgaruvchanligi	55